

“MAXZANUL-MUTE’IN” ASARINING MANBASHUNOSLIK TAHLILI

Setirzayev Shayxulmuhammad Buvahaddiniy
O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qo'lyozmada mayjud bo'lgan «Maxzanul-mutein» asari tadqiqot mobaynida asl nusxasiga mos va muvofiq bo'lgan ikki nusxasining izohlarida keltirilgan baxsli masalalar bir-biridan ajratildi va kitob hoshiyasini ba'zi sharh va izohlarini yozish bilan bezash, u yerga fiqh qonunlarining e'tibordan chetda qolgan kamyob jihatlari, shuningdek, hoshiyalarda ba'zida mufassal, ba'zan esa qisqa bayon bilan keltirilgan izohlarda mashhur sufiy sharhlovchi olimlarning hayot yo'llari ko'rsatildi. Shu bilan birga, So'fi Allohyorning so'z ma'nosini tushunish va uning foydasini ziyoda qilish uchun e'tibor bergen barcha jihatlari o'sha yerda mujassamlashtirish ko'zda tutildi.*

Kalit so'zlar: *Fiqhul akbar, Abu Hanifa, Maxzanul-mute'in, So'fi Allohyor.*

So'fi Allohyorning “Maxzanul-mute'in” asari matnlar Hanafiy mazhabи ulamolar fikrlari bilan deyarli barcha masalalarda bir xil buni moturidiylik ta'limoti bilamni iymon masalasidagi bahsda yuqorida qiyoslab o'tdik. Qo'lyozma matnlarni ba'z masalalardagi qarashlarini hanafiy mazhabidagi mo'tamad manbalardagi matnlar bilan qiyosi ko'rib chiqiladi.

O'z davridagi bahsli maslalalardan bir bo'lmish Alloh taolonning Kalom sifati haqidagi mavzuga jiddiy e'tibor qaratdi va Alloh taolonning Zoti va sifatining masalalari bayonida asarda dastlab hanafiy mazhabи yetakchisi Imom Abu Hanifaning fikrlarini keltirib shunday deydi:

“Fiqhul akbar” kitobida: Alloh taolonning Zotiy sifatlariga: Hayot, Qudrat, Ilm, Kalom, Sam', Basor, Iroda va boshqalar kiradir.

Fe'liy sifatlariga esa: Taxliq, Insho, Ibdo', Sun', Fe'l, Iyod, Ihdos, Ixtiro', Takvin sifatlaridir. Fe'liy sifatlarini barchasini Alloh taolonning Takviniy sifatlari deba ham nomlanadi, chunki “Takvin”, degani bir narsani vujud (borlikdan) adam (yo'qlikka) o'tkazish demakdir. Alloh taolonning biror ism yoki Sifati hodis (keyin paydo bo'lgan) emas, barcha Ismlar Sifatlari azaliydir”³⁷.

Tabsiro kitobida: Qur'on Alloh taolonning kalomi va Sifatidir. Alloh taolo barcha sifatlari ila yakkayu yagona, Qadiym, muhdas (keyin paydo qilingan) bo'lishdan pok bo'lgan Zotdir. Alloh taolo Jabroil alayhis salomga Qur'oni karimni harf va sovtlar orqali eshittirgan, Jabroil alayhis salom esa huddi shu harf va sovtlar bilan yodlab olganlar va Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga huddi o'shandek harf va sovtlar bilan o'qib berganlar, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam esa sahobalarga, sahobalar esa tobeinlarga, tobeinlar esa taba tobeinlarga o'qib berganlar, shu tariqa Qur'oni karim bizgacha yetib kelgan³⁸.

Ushbu matnlarga qiyosan “U azaldan kalomi ila gapiruvchidir va kalom azaldan Uning sifatidir”³⁹. Shunga e'tibor berishi kerakki, Abu Hanifa avval Alloh taolonning kalom sifatini alohida sharhlab, keyinroq Qur'oni karimga alohida ta'rif bergan. Bundan shuni tushunish mumkinki, kalom sifati Alloh taolonning zotiy sifatlaridan biri va u maxluq emasligi aniq. Lekin

³⁷ So'fi Allohyor. Maxzanul-mutein. O'zR FA ShI fondi № 4982. – B. 3.

³⁸ So'fi Allohyor. Maxzanul-mutein. O'zR FA ShI fondi № 4982. – B. 3.

³⁹ So'fi Allohyor. Maxzanul-mute'in. O'zR FA ShI fondi № 4982. – B. 3.

Qur’oni karim xususidagi masalaga kelganda esa, unga alohida sharh berishni lozimi topdi. Nima uchun aynan shunday yo'l tutdi? degan savol tug'iladigan bo'lsa, unga quyidagicha javob berish mumkin: Qur’oni karim o'qilardi, yodlanardi, harflar bilan yozib ko'chirilardi, tillarda talaffuz qilinardi va hokazo jihatlari bor edi. Shunga ko'ra, qaysi jihatdan qaralsa, u Alloh taoloning azaliy sifati bo'lishini yoki qanday ko'rinishlarda yaratilgan ishlardan bo'lishini sharhlab bunday degan: “Qur'on - Alloh taoloning kalomi, mushaflarda yozilgan, qalblarda yod olingan, tillarda qiroat qilingan, Nabiy alayhissalomga nozil qilingan. Qur'onnei talaffuz qilish maxluq (yaratilgan)dir, uni yozishlik maxluqdir, uni qiroat qilishlik maxluqdir, Qur'onning o'zi esa maxluq emasdir”. Shuningdek, Alloh taolo “bizning kalomimizga o'xshamagan kalom ila gapiradi. Biz a'zolar va harflar vositasida gapiramiz. Alloh taolo a'zolarsiz va harflarsiz gapiradi. Harflar maxluqdir. Alloh taoloning kalomi maxluq emasdir”⁴⁰.

Alloh taolo O'z ilmi bilan olimdir, Ilm Alloh taoloning azaliy Sifatlaridan dir. O'z Qudrati ila Qodirdir, Qudrat Alloh taoloning azaliy sifatlaridandir. O'z Kalomi ila Mutakallimdir, Kalom ham Alloh taoloning azaliy sifatlaridandir. O'zining yaratish Sifati ila Yaratguvchidir, Yaratish ham Alloh taoloning azaliy sifatlaridandi. O'z Fe'li ila Foil (ishni bajaruvchi) dir, Fe'l ham Alloh taoloning azaliy Sifatlaridandir.

Har bir bajaruvchining qilgan ishi maxluq (yaratilgan) hisoblanadi, lekin Alloh taoloning Fe'llari esa bunday emas, ya'ni keyin yaratilgan emasdir. Alloh taoloning barcha Ism va Sifatlari azaliydir, kim Alloh taoloning Ism va Sifatlaridan birontasini maxluq yoki muhdas (keyin paydo qilingan) yoki azaliy ekanligi borasida shak qilguvdek bo'lsa kofir hisoblanadi. (Alloh taolo O'zi saqlasin)⁴¹.

Tabsiro kitobida: Alloh taolo barcha Ism va Sifatlari ila Qadiym bo'lib, Ism Sifatlarning ayni o'zi ham, Ulardan boshqa ham emasdir. Agar biz Ushbu Sifatlarni Alloh taoloning O'zidir deb aytadigan bo'lsak, ushbu gap demak Ilohlar ikkita ekan degan tushunchaga olib kelib qo'yadi, Alloh taoloning hech bir sherigi yo'q, Yakkayu Yagona bo'lган Zotdir. Ushbu Sifatlar Alloh taoladan boshqadir deb aytadigan bo'lsak, demak Alloh taoloning Sifatlari muhdas (keyin paydo bo'lган) ekanda degan tushuncha kelib qoladi, bu esa aslo joiz emas.⁴²

Yuqoridagi masalaani tahli lqiladigan bo'lsak, ushbu Ism va Sifatlar azaldadan Alloh taoloning Zotida qoyim bo'lган Sifatlar hisoblanadi, agar Azalda Alloh taoloning Zotida qoim emas deb aytadigan bo'lsak, Allh taolo Zoti havodislar (keyin paydo qilingan) narsalarga mahal (o'rin) bo'lib qoladi, bu esa aslo mumkin emas.

Tuxfatul mutakallimiyn kitobida: Kimki Alloh taoloning Sifatlaridan birontasini inkor qiladigan bo'lsa, yoki biror sifatni o'zidan qo'shib qo'ysa, Alloh taolo O'z Zotini u bilan nomlamagan yoki Alloh taoloning Rububiyyatiga to'g'ri kelmaydigan biror ism bilan nomlasa kofir bo'ladi. Alloh taoloning barcha Sifatlariga iymon keltirish vojibdir.

Fiqhul akbar kitobida: Alloh taoloning Sifatlarining hech biri maxluqotlarning sifatlari kabi emas. Alloh taolo bilada lekin insonlarning bilishi kabi emas, Alooh taolo Qodirdur, lekin insonlarning qodir bo'lishi kabi emas, Alloh taolo ko'radi lekin insonlarni ko'rishi kabi emas, Gapiradi lekin insonlarning gapireshi kabi emas, Eshitadi lekin insonlarning eshitishi kabi emas. Insonlar gapirishda ba'zi bir a'zolaridan, harflardan foydalangan holda gapiriladi,

⁴⁰ So'fi Allohyor. Maxzanul-mutein. O'zR FA ShI fondi № 4982. – B. 3.

⁴¹ So'fi Allohyor. Maxzanul-mutein. O'zR FA ShI fondi № 4982. – B. 3.

⁴² So'fi Allohyor. Maxzanul-mutein. O'zR FA ShI fondi № 4982. – B. 3.

lekin Alloh taolo esa biror a'zo va harflar yordamisiz gapiradi. Siz bilan biz gapiroyotgan harflar barchasi maxluq (keyin paydo bo'lgan) dir, lekin Alloh taoloning kalomi esa maxluq emasdir⁴³.

Fiqhul akbar kitobining sharhida: Alloh taolo harf va a'zolar yordamisiz, ularga extiyoji tushmagan holda gapiradi. Hammaga ma'lum bo'lganidek, nimagadir extijoj tushish tabiyki kamchilik hisoblanadi. Alloh taolo bularning barchasidan oliv bo'lgan Zotdir.

Bunga dalil sifatida ushbu oyati karimani keltirish mumkin. Alloh taolo Qur'oni karimda shunday marhamat qiladi:

مُلِكٌ يَوْمَ الْدِينِ ۚ

va jazo (va mukofot) kunining (qiyomat kunining) egasidir⁴⁴

U Zot O'z Zotini Din kunining egasi deb nomladi. Demak Alloh taolo insonlarni yaaratishdan oldin ham Qodir, ularga rizq berishidan oldin Roziq Zot bo'lgan.

Yana bir masala: Alloh taolo Eshitguvchi va ko'rguvchi Zotdir. U Zotning eshitish va ko'rish Sifati azaliy Sifatlardan bo'lib, U Zot hech qanday quloqlarsiz, eshitib, ko'zlarsiz ko'radi. Insonlar esa ko'z bilan ko'rib, quloqlar yordamida eshitadi.

Yana bir masala: Agar Alloh taolo O'ziga o'xshagan yana bir boshqa ilohni yaratishga Qodirmi yoki yo'q deya savol berilsa, javoban shunday deyiladi: Alloh taolo hamma narsaga Qodir bo'lgan Zotdir, bunday bo'lishi muhol ish hisoblanadi, Alloh taolo muhol narsalardan pok bo'lgan Zotdir, bunaqangi savol berish kufr hisoblanadi⁴⁵.

Haqiqatda ushbu asar jahmiylar, mo'taziliylar, rofizalar, mushabbihalar, qadariylar, jabariylar, lafziylar kabi bir necha mutbadi' guruhlarga qarshi berilgan raddiyalarni o'zida jamlagan asar. Ushbu raddiyalar ulkan ilmiy-ma'rifiy qimmatga ega bo'lib, jahmiy, mo'taziliy, mushabbiha kabilardan ajralib chiqqan hozirgi va kelajak davrlarda paydo bo'ladigan boshqa mutbadi' jamoalarning ildizlarini quritishda ulkan hissa qo'shadi.

Birinchi: "Mushabbiha" - Alloh taoloni sifatlarida maxluqqa o'xshatganlar. Ular nasorolarning aksidirlar .

Alloma ushbu asarda jahmiylarning mushabbihalarga o'xhashi haqida so'z yuritar ekan, ular xususida shunday deydi: "Ba'zi ilm ahli shunday degan: "Jahmiylar ular mushabbihalardir. Chunki mushabbihalar Rabblarini eshitmaydigan, ko'rmaydigan, so'zlamaydigan, yaratmaydigan, kar va soqov but-sanamga o'xshatganlaridek jahmiylar ham, U so'zlamaydi O'z nafsi ko'rmaydi, deganlar. Shuningdek, Allohning ismi ham yaratilgan, deganlar .

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qadimda bo'lgani kabi hozirgi kunda ham, mushabbihalar faollahib, "Alloh taoloni bandalarga o'xshatish" fikri keng ommaga jadal sur'atda tarqalib, omma xalqning qalbidagi toza, sof imonida shubha gumonlar uyg'otmoqda.

Demak, boshqacha qilib aytganda mushabbihalar Alloh taoloning sifatlarini maxluqotlarning sifatlariga o'xshatishni o'zlariga ep ko'rgan nobakorlardir.

Ikkinci: "Mo'tazila" - Bu firqa a'zolari Hasan Basriy rahmatullohi alayhining o'limidan keyin, ikkinchi yuz-yillikning boshlarida Ahli sunna val jamoadan ajralib chiqqan bo'lib, ularning boshliqlari Amr ibn Ubayd (-/144 h.) va Vosil ibn Atodir (-/131 h.). Ahli sunnadan

⁴³ So'fi Allohyor. Maxzanul-mutein. O'zR FA ShI fondi № 4982. – B. 3.

⁴⁴ Fotiha surasi, 3-oyat.

⁴⁵ So'fi Allohyor. Maxzanul-mutein. O'zR FA ShI fondi № 4982. – B. 3.

chetga chiqib, jamoatdan ajralib o'tirganlariga ishora qilib: "Ular mo'tazilalar - ajralib olganlar", deyilgan. Shundan so'ng bu firqa shu nom bilan atalgan.

Tadqiqotlarda kelishicha, bu mazhabning asoschisi Vosil ibn Atodir. Unga Hasan Basriyning (-/110 h) shogirdi Amr ibn Ubayd ergashgan.

Horun Rashid zamonida Abul Huzayl (-/235 h.) ikkita kitob tasnif qilib, ularning mazhabini bayon etdi. U bu mazhabni besh asosga bino qildi: adl (adolat); tawhid; va'iydni ijro qilish; ikki manzila o'rtasidagi manzila; amru ma'ruf va nahiylar munkar.

So'fi Allohyor "Maxzanul-mute'iyn" asarining aksar o'rinalarda mo'tazilalarga qarshi raddiyalar bergan. Chunki, mo'tazila firqasi Alloh taoloning kalomini yaratilgan degan va bu asar aslida Qur'onni maxluq emasligini isbotlash uchun yozilgan. Shunga ko'ra asarda mo'tazilaning e'tiqodiy qarashlariga keskin raddiyalarni uchratish mumkin. Jumladan:

"Abdurahmon ibn Affondan rivoyat qilinadi: "Bishr al-Marisiyga darra urilgan yilda Sufyon ibn Uyaynaning shunday deganini eshitdim. Ibn Uyayna suhbat majlisida g'azablangan holda turdida: "Qur'on Allohnинг kalomi. Darhaqiqat, Amr ibn Dinor, Ibn al-Munkadir, Mansur ibn Mo'tamir, al-A'mash va Mis'ar ibn Kidom kabi ko'plab (olim va buyuk) insonlarni ko'rdim va ularning suhbatida bo'ldim, deb, so'ngra: ular e'tizol (mo'tazila) haqida va rofizilar, qadariylar haqlarida so'z yuritdilar va bizlarni o'sha qavmlardan uzoqlashishga buyurdilar. Biz Qur'on faqat Allohnинг kalomi ekanini ma'lum. Bundan boshqasini aytganlarga Allohnинг la'nati bo'lsin. Bu so'z nasroniylarning gaplariga o'xshashdir. Ular bilan hamsuhbat ham bo'lmanq, gaplariga qulq ham solmang", dedi"⁴⁶.

Ushbu dalilni keltirish bilan So'fi Allohyor avvalo, mo'tazila firqasi Allohnинг kalomini maxluq deganiga ishora qilgan. Shuning bilan birga, boshqa ismlari zikr qilingan mazhablarni ham botil ekanini ushbu dalil bilan isbotlab ketgani.

Uchinchi: "Qadariya" - banda o'z ish harakatlarini qilishga qodirdir, ularni yaratuvchidir, deb e'tiqod qiluvchilar. Ular har bir yaxshilik yoki yomonlik Allohnинг taqdir qilishi bilan bo'lishini inkor etadilar.

Mo'tazila bilan qadariya bir narsadir. Lekin Ahli sunna val jamoadan ajralib olganlari uchun "mo'tazila", qadarni inkor qilib, "Banda o'z ish harakatini o'zi xalq⁴⁷ qiladi" deganlari uchun "qadariya", deyiladi⁴⁸.

Demak, qadariya va mo'tazilalar bir firqa a'zolari bo'lib ikki ism bilan nomlangan. Ularning qadarni inkor qilib, "Banda o'z ish harakatini o'zi yaratadi" deyishlariga quyidagicha javob qilinadi:

Imim Buxoriyning "Xalqu af'ol al-ibod va ar-rad ala al-jahmiya va ashob at-ta'il" kitobida keltieilishicha "Ana endi, bandalarning fe'lllariga kelsak, darhaqiqat, bizga Ali ibn Abdulloh, Marvon ibn Muoviya, Abu Molik, Rib'iy ibn Hirosh gapirib berishi orqali yetgan va Huzayfa roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda: Nabiy sollallohu alayhi vasallam: "Albatta, Alloh barcha usta-hunarmandni va uning yasagan narsasini ham yaratadi", dedilar. Ba'zilar o'sha payt: «..sizni ham, qolgan narsalarigizni ham Alloh yaratgan..»⁴⁹ oyatini tilovat

⁴⁶ So'fi Allohyor. Maxzanul-mutein. O'zR FA ShI fondi № 4982. – B. 43.

⁴⁷ Xalq – yaratilgan demakdir.

⁴⁸ Muhammad Anvar Badaxshoni. Aqiydatu at-Tahoviya sharhining talxiysi. Tarjimon: Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. – Toshkent: Hilol-nashr, 2019. – B. 434.

⁴⁹ Soffat surasi, 96-oyat.

qilishgan”, deydi”, bu bilan yasalgan narsalar va ularning egalari yaratilgan ekanlarini xabarini berdi⁵⁰.

To‘rtinchi: “Mujassima” – Alloh taologa jism nisbatini bergan nobakorlardir. Bu toifa hozirgi kunda juda urchib borayotgan qadim toifalardan biri bo‘lib, bu haqda keyingi bandda batafsil to‘xtalib o‘tiladi.

Beshinchi: “Jahmiya – Jabariya” – Jahm ibn Safvon Samarqandiya ergashganlar. U sifatlarni rad qilib, ta’tiy qilgan – sifatlarni amaldan qoldirgandir. Jahmiylar aslida Allohnинг sifatlarini inkor qiladilar. Ular ta’tiy, ya’ni sifatlarni amaldan qoldirish haqida so‘z yuritganlar.

Jahm ibn Safvon Samarqandiy (78-128 h.) o‘z aqiydasini hijriy 118-yilda Xolid ibn Abdulloh Qasriy tomonidan Vositda o‘ldirilgan Ja’d ibn Dirhamdan olgan⁵¹. U quyidagi fikrni olg‘a surgan va shu fikriga ko‘ra “jabariya” toifasiga asos solgan: “Alloh taolodan boshqa biror kimsaga ish-harakat nisbati berilmaydi. Ish-harakat va amallar majoziy ma’noga ko‘ra bandaga nisbat qilinadi. Bandalarning fe’llarini ular o‘zları emas, balki, yolg‘iz Alloh taoloning O‘zi yaratadi. Inson esa tamoman majburlangan. Har qanday kuch-qudrat va xohishdan xolidir. Alloh taolo banda uchun fe’llarini yaratadi, so‘ngra bandaning qo’llari orqali sodir etadi”. Ularning nazzida tabiiy ya’ni, qo‘l titrashi, yurak urushiga o‘xshash fe’llar bilan ba’zilarga ixtiyoriydek tuyulgan yurish, gapirish, harakatlanishga o‘xshash fe’llar o‘rtasida farq yo‘q. Ularning barchasi Alloh taolo tarafidan majoziy ma’noda emas balki, haqiqatga ko‘ra yaratilgan deydilar⁵².

Jabariylarning fikrlari va dalillari tahlili: albatta, ushbu mazhabning e’tiqodiy qarashlari Qur’oni karim oyatlarini to‘g‘ri tushunmasliklari sababidan hamda Qur’oni karim oyatlari ma’nolarining ko‘rsatmalari bilan bir qatorda ularni dalil qilishda o‘zlarining asoslari va fikrlariga suyanishlari ortidan kelib chiqqan. Chunki banda fe’lning foili (qiluvchisi) ekaniga shariat, aql va his barchasi bilittifoq dalolat qiladi. Shunga ko‘ra, banda qilganiga yarasha tanbehta haqli bo‘ladi. Alloh taolo: “Sizlarga faqat qilgan amallaringiz jazosi berilmoqda, xolos”⁵³. Yana boshqa oyatda: “va har bir jon, qilganiga yarasha jazosini olganda..”⁵⁴, degan.

Qolaversa bid’at ahllariga raddiya berish asnosida o‘rta asrlardan to hozirgacha muhokamalarga sabab bo‘lib kelayotgan Qur’on Alloh taoloning kalomi masalasi ham keng bayon etilib Ahli sunna val jamoa ulamolarining dalillari ochiqlangan.

Fiqhul akbar kitobida: Qur’oni karim sahifalarda yozib bitib qo‘yilgan, qalblarda hifz qilingan, tillar uzra o‘qilgan, Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga nozil qilingan Kalomdir. Qur’on o‘qilganidagi chiqaradigan lafzlar, Qur’on oyatlarini yozganlaridagi harflar, Qiroatlarning barchasi maxluq (keyin yaratilgan) dir, lekin Qur’oni karimning o‘zi maxluq (keyin yaratilgan) emasdir.

Tabsiro kitobida: Qur’on Alloh taoloning kalomi va Sifatidir. Alloh taolo barcha sifatlari ila yakkayu yagona, Qadiym, muhdas (keyin paydo qilingan) bo‘lishdan pok bo‘lgan Zotdir. Alloh taolo Jabroil alayhis salomga Qur’oni karimni harf va sovtlar orqali eshittirgan, Jabroil

⁵⁰ Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Xalqu af’ol al-ibod va ar-rad ala al-jahmiya va ashob at-ta’til. Tadqiqotchi: Fahd ibn Sulaymon al-Fahid. J. 2. Ar-Riyod: Dor Atlas al-Hazro’, 2005. – B. 66.

⁵¹ Muhammad Anvar Badaxshoniy. Aqiydatu at-Tahoviya sharhining talxiysi. Tarjimon: Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Toshkent: Hilol-nashr, 2019. – B. 434.

⁵² Abul Hasan Al-Ash’ariy. Maqolot al-Islomiyyin. J. 1. Bayrut: Al-Maktabatu al-asriyya, 1990. – B. 279; Shahristoniy. Al-Milal va an-nihal. J. 1. – Qohira: Muassasatu al-halabiy, 1968. – B. 73.

⁵³ Naml surasi, 90-oyat.

⁵⁴ Oli imron surasi, 25-oyat.

alayhis salom esa huddi shu harf va sovtlar bilan yodlab olganlar va Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga huddi o'shandek harf va sovtlar bilan o'qib berganlar, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam esa sahobalarga, sahobalar esa tobeinlarga, tobeinlar esa taba tobeinlarga o'qib bergenlar, shu tariqa Qur'oni karim bizgacha yetib kelgan⁵⁵.

Tuxfatul mutakallimiyn kitobida: Qur'oni karim ortiqchilikni ham kamchilikni ham ehtimol qilmaydi. Chunki Allooh taolo Jabroil alayhis salom bilan hech qanday harf, sovt (ovoz), a'zolar harakatisiz hijob ortida gaplashgan, Jabroil alayhis salom esa huddi Rasululloh sollallohu alayhi va sallam me'roj kechasida, Odam va Muso alayhis salomlar Allooh taolo bilan hijob ortidan gaplashganlaridek gaplashib Allohnning kalomini hijob ortidan eshitganlar. Har gal Allooh taolo bilan shu holatda gaplashganlar, Allooh taolo Jabroil alayhis salomni Ushbu kalomni Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga oyat oyat, sura sura qilib, nozil qilishiga buyuradi. Shuning uchun Qur'on qadiym kalom hisoblanadi, keyin paydo bo'lgan kalom emas⁵⁶.

Mutashabbehlar va karromiyalar: Qur'on keyin paydo bo'lgan, Allooh taolo Qadr kechasi kuni Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga o'rgatgan deyishadi.

Mo'tazilalar esa: Qur'on maxluq (keyin yaratilgan) dir. Allooh taolo Jabroil alayhis salom bilan gaplashgan lekin Jabroil alayhis salom Allooh taoloning kalomini eshitmagan. Lekin Allooh taolo kalomini yetkazmoqni iroda qilgan vaqtida Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga ilhom qilgan. Ba'zilar Jabroil alayhi salom Qur'oni karimni lavhul mahfuzdan yodlab olib, Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga yetkazganlar deb aytishadi⁵⁷.

Agar Allooh taolo oyati karimada shunday deydi:

إِنَّا نَحْنُ نَرَأَنَا الْذِكْرَ وَإِنَّا لَهُ لَحْفَظُونَ ٩

Albatta, bu zikrni (ya'ni Qur'onni) Biz O'zimiz nozil qildik va uni O'zimiz asraguvchidirmiz⁵⁸.

Saqlashga muxtoj bo'lgan narsa maxluq (keyin yaratilgan) hisoblanadi deb savol berilsa, buning ma'nosi quydagicha bo'ladi, "Biz Jabroilni zikr ila tushurdik", degan ma'nodadir, chunki yana bir oyati karima Allooh taolo quydagicha marhamat qiladi:

وَإِنَّهُ لِتَنْزِيلُ رَبِّ الْعَالَمِينَ ۖ ۱۹۲ نَزَلَ بِهِ الرُّوحُ أَلَّا مِيَّنُ ۖ ۱۹۳

Albatta, (bu Qur'on) olamlar Parvardigorining nozil qilgan (kitob)idir. Uni Ruhul-amin (Jabroil) olib kelib⁵⁹,

Jabroil alayhis salom Rasululoh sollallohu alayhi va sallamga Qur'oni karimni olib tushganlar, Jabroil alayhis salomning kalomi maxluq (keyin yaratilgan) hisoblanadi.

Allooh taolo oyati karimadagi: لَحْفَظُونَ Asraguvchidirmiz dan Qur'oni karimga ortiqcha ziyyodalik kiritishdan va olib tashlanishidan saqlab qo'yilganligini iroda qilgan deb aytildi.

Agar Allooh taolo Qur'oni karimda quydagicha marhamat qiladiku:

إِنَّهُ لَقَوْلُ رَسُولٍ كَرِيمٍ ۖ ۱۹۴

Albatta, u (Qur'on) bir ulug' elchi (Jabroil Allooh huzuridan keltirgan vahiy) so'zidir⁶⁰, deb savol berilsa aytildiki, Allooh taolo Qur'oni karimni nisbatini Jabroil alayhis salomga

⁵⁵ So'fi Allohyor. Maxzanul-mutein. O'zR FA ShI fondi № 4982. – B. 3.

⁵⁶ So'fi Allohyor. Maxzanul-mutein. O'zR FA ShI fondi № 4982. – B. 3.

⁵⁷ So'fi Allohyor. Maxzanul-mutein. O'zR FA ShI fondi № 4982. – B. 3.

⁵⁸ Hujr surasi, 9-oyat.

⁵⁹ Shuaro surasi, 192–193-oyatlar.

⁶⁰ Takvir surasi, 19-oyat.

berganining sababi Qur’oni karimni Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga Jabroil alayhi salom yetkazganlar deb aytildi.

Yodda tuting!! Quro’oni karim, oyatlari e’tiboridan tavrotning o‘zi ham tavrotdan boshqa ham emas, boshqa Zabur, Injil kabi samoviy kitoblarga nisbatan ham huddi shunday. Qur’on o‘qiganda talaffuz qilayotgan lafzlar maxluq (keyin yaratilgan) hisoblanadi, chunki lafzlar til va boshqa a’zolar yordamida hosil bo‘ladi, insonning ushbu azolari esa maxluq hisoblanadi.

Alloh taolo payg‘ambarlariga nozil qilgan kitoblarning barchasi maxluq (keyin yaratilgan) emasdir!

Mutashabbihlar aytishlaricha: Alloh taolo nurdir. Bunga hujjat tariqasida quydagi oyati karimani keltirishadi.

اللَّهُ نُورٌ لِّلْمُسْكُنٍ وَّلِلْأَرْضٍ

Alloh osmonlar va Yerning «nuri»dir⁶¹, ushbu savolga quydagicha javob beriladi: Ya’ni yerusmonlarni nurlantirib turuvchi zotdir degan ma’noda.

Alloh taolo nurdir deb aytish joiz emas. Chunki nur o‘zgaruvchan narsa bo‘ladi, O‘zgaruvchanlikni qabul qiladigan narsa esa Rob bo‘la olmaydi. Alloh taoloni kelish, ketish degan narslar bilan Sifatlab bo‘lmaydi. Chunki kelish, ketish maxluqotlarning sifatlaridan hisoblanadi. Ikkala sifatda ham Alloh taoloning Zotiga zid keladigan manfiylik bor.

Tuxfatul mutakallimiyn kitobida: Ahli sunna val jamoa ulamolari, Alloh taolo maxsus makonda deb aytilmaydi, agar shundey bo‘lganda qandaydir makonga doimo muxtojligi bo‘lib qolardi, nimagadir extiyoji bor narsa Rob bo‘la olmaydi. Karromiylar, mutashabbihlar, mujassimalar esa Alloh taolo arshni makon tutgan deb ushbu oyati karimani dalil qilib keltirishadi:

الرَّحْمَنُ عَلَى الْعَرْشِ أَسْتَوْى ۝

(U) Arsh uzra «mustaviy» bo‘lmish Rahmondir⁶².

Ya’ni joylashib oldi degan ma’nosida. Ba’zi mufassir ulamolar aytishadiki ushbu oyati karimadagi “Arsh” kalimasidan murod, “Mulk” dir, Istivodan murod esa “Istylo” (egallah) dir. Ushbu oyati karima iqror qilib qabul qilinadi, lekin Alloh taolo doimo qanday bo‘lishidan qatiy nazar Arshga bog‘liq emas, Balki U Zot Arshni tutib turuvchidir. Alloh taologa turish, o‘tirish kabi sifatlarni nisbatini berish mutlaqo mumkin emas, chunki inson o‘tirishdan malollanib qolganda turishga, turishdan malollanib qolganda esa albatta o‘tirishga majbur bo‘ladi. Alloh taolo esa ushbu sifatlarning barchasidan pok bo‘lgan Zotdir⁶³.

Tabsiro kitobida: Alloh taolo Qur’oni karimda shunday marhmat qiladi:

الرَّحْمَنُ عَلَى الْعَرْشِ أَسْتَوْى ۝

(U) Arsh uzra “mustaviy” bo‘lmish Rahmondir⁶⁴.

Madinaning imomlari bo‘lmish Molik ibn Anas aytadilarki: “Istivo” nomalum, qandayligini esa aql bilan bilib bo‘lmaydigan narsa, unga iymon keltirish vojib bo‘lgan amal, qanday ekanligi haqida savol berish esa bidatdir.

⁶¹ Nur surasi, 35-oyat.

⁶² Toha surasi, 5-oyat.

⁶³ So‘fi Allohyor. Maxzanul-mutein. O‘zR FA ShI fondi № 4982. – B. 4.

⁶⁴ Toha surasi, 5-oyat.

Yana shu mavzuga tegishli masala, Alloh taolo Arshga ko‘chib o‘tdi deb aytish ham mutloqo mumkin emas, chunki ko‘chib o‘tish sifati maxluqotlarga tegishli sifatdir, Alloh taolo bunday sifatlardan pok bo‘lgan Zotdir. Va yana kimki Alloh taolo Arshning ustida o‘tiradi deb aytsa, demak Alloh taolo Arsh bilan barobar ekanda yoki Arshdan kattaroq ekanda degan savolga olib keladi. Bunday degan odam esa Alloh taologa chegara belgilab qo‘ygani uchun kofir bo‘ladi. Alloh saqlasin!!.

Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhudan bir kuni Alloh taolo Arshni yaratishidan oldin makoni qayerda bo‘lgan deb savol so‘rashdi, shunda U Zot Alloh taolo na makon tutgan va na zamon, Alloh taolo oldin qandey bo‘lgan bo‘lsa xozir ham huddi o‘shandekdir deb javob bergenlar.

Ja’far As-Sodiq aytadilar: Tavhid uch qismidan iboratdir. Alloh taolo biror narsadan paydo bo‘lmagan, qayerdadir turmaydi, biror narsaga muxtoj emas. Kimdakim shu uch sifatni birortasi bilan Alloh taoloni sifatlab qo‘yadigan bo‘lsa kofir bo‘ladi. Birinchisida Alloh taoloni maxluqlar sifati bilan sifatlab qo‘ygani uchun, ikkichisida Alloh taologa chegara belgilab qo‘ygani uchun, uchinchisida esa Alloh taologa muxtojlik sifatini berib qo‘yanligi uchundir⁶⁵.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammad Anvar Badaxshoniy. Aqiydatu at-Tahoviya sharhining talxiysi. Tarjimon: Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Toshkent: Hilol-nashr, 2019.
2. So‘fi Allohyor. Maxzanul-mutein. O‘zR FA ShI fondi № 4982.
3. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Xalqu af’ol al-ibod va ar-rad ala al-jahmiya va ashob at-ta’til. Tadqiqotchi: Fahd ibn Sulaymon al-Fahid. J. 2. Ar-Riyod: Dor Atlas al-Hazro’, 2005.
4. Abul Hasan Al-Ash’ariy. Maqolot al-islomiyin. J. 1. Bayrut: Al-Maktabatu al-asriyya, 1990. – B. 279; Shahristoniy. Al-Milal va an-nihal. J. 1. – Qohira: Muassasatu al-halabiy, 1968.

⁶⁵ So‘fi Allohyor. Maxzanul-mutein. O‘zR FA ShI fondi № 4982. – B. 5.